



## XOTIN-QIZLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLARNI KAMAYTIRISHDA IJTIMOY-HUQUQIY CHORALAR

Nodira Xudoyberganova

QR To'rtkul tumani IIB JXX HQB

Xotin- qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, leytenant

[nodiraxudayberganova@gmail.com](mailto:nodiraxudayberganova@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19180178>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 19-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 21-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 23-mart 2026 yil

### KEYWORDS

*xotin-qizlar, huquqbuzarliklar  
profilaktikasi, normativ-  
huquqiy hujjatlar, ijtimoiy  
qo'llab-quvvatlash, huquqiy  
madaniyat, profilaktik  
tadbirlar.*

### ABSTRACT

*Bugungi kunda xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Maqolada O'zbekistonda xotin-qizlar huquqbuzarligi profilaktikasi bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan, qonun, farmon va qarorlar tahlil qilinadi. Shuningdek, hududlarda, xususan Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtkul va To'rtko'l tumanlarida amalga oshirilayotgan profilaktik tadbirlar, "Turmush" va "Men kuchli ayolman" loyihalari ko'rib chiqiladi. Tadbirlarning samaradorligi, huquqiy madaniyatni oshirish va xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashdagi ahamiyati ta'kidlangan.*

Bugungi kunda xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda ayollarning o'rni va ijtimoiy faolligi ortib borayotgan bir sharoitda ularning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, turli huquqbuzarliklarning oldini olish hamda ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifalardan biridir.

Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning yuzaga kelishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatadi:

- ijtimoiy-iqtisodiy muammolar (ishsizlik, moddiy yetishmovchilik);
- oilaviy nizolar va zo'ravonlik;
- huquqiy bilimlarning yetishmasligi;
- psixologik bosim va stress holatlari;
- salbiy ijtimoiy muhit ta'siri.

Mazkur omillar ayollarning ijtimoiy moslashuviga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni huquqbuzarlik sodir etishga undashi mumkin.

O'zbek tilining izohli lug'atida<sup>1</sup> "ayol" atamasi erkakka qarama-qarshi jins vakili, ya'ni xotin ma'nosida izohlanib, ko'pincha umumlashtiruvchi mazmunda "xotin-qizlar"

<sup>1</sup> Ўзбек тилининг изохли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.

tushunchasini anglatadi. "Xotin" tushunchasi esa biologik jihatdan erkak jinsiga zid bo'lgan, farzand ko'rish va emizish qobiliyatiga ega shaxs, shuningdek nikohdagi ayol sifatida talqin qilinadi. "Qiz" atamasi esa balog'at yoshiga yetmagan yoki balog'atga yetgan bo'lsa-da, hali turmush qurmagan ayolni ifodalaydi.

Mazkur tushunchalar ayol jinsiga mansub shaxslarni nafaqat yosh jihatidan, balki ularning biofiziologik xususiyatlari, hayotiy tajribasi hamda dunyoqarashiga ko'ra ham farqlash imkonini beradi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasining 2019-yilda qabul qilingan "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunlarida "ayollar" atamasi o'rniga "xotin-qizlar" tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq deb topilgan.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish uchun ularning kelib chiqish sabablari va shart-sharoitlarini chuqur o'rganish hamda tizimli tahlil qilish zarurati mavjud<sup>2</sup>. Shu munosabat bilan ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarida xotin-qizlar masalalari bilan shug'ullanuvchi alohida bo'linmalar tashkil etildi. Quyidagilar xotin-qizlar masalalari bo'yicha bo'linmalarining asosiy vazifalari etib belgilangan:

- xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, huquqiy madaniyatini oshirish, ular o'rtasida huquqiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish;
- xotin-qizlar tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, o'rganish, bartaraf etish borasida chora-tadbirlar belgilash;
- huquqbuzarlikdan jabrlangan, huquqbuzarliklar sodir etishga moyil bo'lgan, huquqbuzarlik sodir etgan, shu jumladan ilgari sudlangan va ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan xotin-qizlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish choralari tashkil etish;
- xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish borasida huquqbuzarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda muassasalarning o'zaro hamkorligini ta'minlash.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va huquqbuzarliklarning oldini olish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shu maqsadda bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi: **"Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonun<sup>3</sup>** umumiy profilaktika tizimini belgilasa, **2019-yildagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun** ayollarni zo'ravonlikdan himoya qilish va profilaktik choralarni tartibga soladi. Shu bilan birga, **"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi**

<sup>2</sup> Аёллар жиноятчилигининг сабаб ва шароитлари ҳамда профилактикаси. Ўқув қўлланма. Қ.П.Абдурасулова Д.М.Миразов, Ж.С. Мухторов ва бошқалар. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – Б. 5.

<sup>3</sup> "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni" №O'RQ-371, 14.05.2014 - hujjatiga nisbatan respondent hujjatlar ro'yxati 17.03.2026 sana holatiga.

**Qonun**<sup>4</sup> gender tenglikni ta'minlashga xizmat qiladi. Prezident farmon va qarorlari esa xotin-qizlarning bandligini oshirish, ularni tadbirkorlikka jalb etish va ijtimoiy himoyani kuchaytirishga qaratilgan. Mazkur islohotlar doirasida joriy etilgan **"Ayollar daftari"** tizimi esa muammoli xotin-qizlar bilan individual ishlash va ularni ijtimoiy reabilitatsiya qilish imkoniyatini yaratdi.



Xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktika samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekistonda turli hududlarda tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtkul tumanida "Turmush" nomli maxsus profilaktik tadbirlar doimiy tarzda o'tkazilmoqda.

Shuningdek, To'rtko'l tumani "Ko'kcha" QFY hududida joylashgan maktab va maktabgacha ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarning, xususan, qotillik va oilaviy turmush doirasidagi jinoyatlarning erta oldini olishga qaratilgan profilaktik va tushuntirish ishlari olib borildi. Tadbirlar davomida axborot bukletlari tarqatilib, bolalar va ota-onalar orasida huquqiy ongini oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

"Xavfsiz va sog'lom yurt" oyligi doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV Jamoat xavfsizligi xizmati tomonidan patrul-post xizmatiga jalb etilgan xodimlar faoliyati nazorat qilindi. Ularning xizmat intizomi, qonunchilikka qat'iy amal qilgan holda ish olib borishlari va huquqbuzarlik hamda jinoyatchilikni barvaqt aniqlash borasidagi samaradorligi yuzasidan qo'shimcha yo'riqnomalar berildi. Shuningdek, "Men kuchli ayolman" nomli profilaktik tadbirlar xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarlikning oldini olish, ijtimoiy faollikni oshirish va salbiy ijtimoiy omillarga qarshi kurashish bo'yicha samarali mexanizm sifatida joriy etildi. Umuman olganda, mazkur tadbirlar tizimli tarzda olib borilganda xotin-qizlar o'rtasida

<sup>4</sup> "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni" №O'RQ-829, 11.04.2023 - hujjatiga nisbatan korrespondent hujjatlar ro'yxati 17.03.2026 sana holatiga.

huquqbuzarliklarni kamaytirish, huquqiy madaniyatni oshirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish bo'yicha amaliy natijalarga erishish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarni kamaytirish — bu faqat huquqni muhofaza qiluvchi organlar zimmasidagi vazifa emas, balki jamiyatning barcha institutlari hamkorligini talab etuvchi murakkab jarayondir.

Mazkur yo'nalishda ijtimoiy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish, ayollarni qo'llab-quvvatlash, ularning huquqiy ongini oshirish hamda ijtimoiy muammolarni bartaraf etish orqali samarali natijalarga erishish mumkin.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. Ж. IV. Тартибот–Шукр / Таҳрир ҳайъати: Т.Мирзаев (раҳбар) ва бошқ.
2. Аёллар жиноятчилигининг сабаб ва шароитлари ҳамда профилактикаси. Ўқув қўлланма. Қ.Р.Абдурасулова Д.М.Миразов, Ж.С. Мухторов ва бошқалар. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2016. – Б. 5.
3. "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni" №O'RQ-371, 14.05.2014 - hujjatiga nisbatan respondent hujjatlar ro'yxati 17.03.2026 sana holatiga.
4. "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni" №O'RQ-829, 11.04.2023 - hujjatiga nisbatan korrespondent hujjatlar ro'yxati 17.03.2026 sana holatiga.

INNOVATIVE  
ACADEMY